



Globallashuv jarayonida yoshga xos ijtimoiylashuv muammolari

Maxmudjonova Xurshida Kamoljon qizi;

FarDU Pedagogika-psixologiya va san'atshunoslik fakulteti

Amaliy psixologiya yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Mirzajonova Eleonora Topvoldiyevna

Ilmiy rahbar: Psixologiya kafedrası katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada globallashuv sharoitida yoshlarning ijtimoiylashuvi jarayonida yuzaga keladigan psixologik, madaniy va mafkuraviy muammolar tahlil qilinadi. Internet va ommaviy madaniyatning kuchli ta'siri natijasida yoshlar orasida qadriyatlarga bo'lgan munosabat, milliy identifikatsiya hamda mafkuraviy immunitetning shakllanishi masalalari yoritilgan. Shuningdek, O'zbekistonda oila, ta'lim muassasalari va ijtimoiy institutlarning yosh avlodni sog'lom ijtimoiylashuviga yo'naltirishdagi roli psixologik nuqtai nazardan asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: Globallashuv, ijtimoiy hayot, yoshlar psixologiyasi, milliy identifikatsiya, ommaviy madaniyat, internet va axborot makoni, ijtimoiy institutlar.

Аннотация: В статье рассматриваются психологические, культурные и идеологические проблемы социализации молодежи в условиях глобализации. Анализируется влияние интернета и массовой культуры на формирование ценностных ориентаций, национальной идентичности и идеологического иммунитета у молодежи Узбекистана. Также подчеркивается роль семьи, образовательных учреждений и социальных институтов в обеспечении здоровой социализации подрастающего поколения

Ключевые слова: глобализация, социальная жизнь, психология молодежи, национальная идентичность, массовая культура, интернет, информационное пространство, социальные институты.

Abstract: This article provides an in-depth analysis of the problems of age-specific socialization in the context of globalization. It highlights the risk of losing national values in childhood, the influence of peers and virtual networks during adolescence, and the contradictions between national identity and global culture in youth. The paper also emphasizes the importance of developing ideological immunity and ensuring the psychological stability of young people.

Keywords: globalization, social life, youth psychology, national identity, mass culture, internet and information space, social institutions.

Globallashuv (globalizatsiya) - lotincha – “glob” so'zidan olingan bo'lib, aynan uni “dumaloqlashuv”, “kurralashuv” deb tarjima qilish mumkin. Yer sharining, yer kurrasining fan-texnika yutuqlari tufayli insoniyat ixtiyoridagi xuddi bir butun sharga, kurraga aylanishini tushuntirish uchun ishlatiladi. «Global» tushunchasi lug'aviy ma'nosi nuqtai nazaridan fransuz tilida - umumiy, lotin tilida esa globus – yer shari ma'nolarini bildiradi. Demak, globalizm tushunchasi ana shu ikki ma'noda ham

bevosita insoniyat hayoti va taqdiri bilan bog'liq bo'lgan katta muammolarni, "sayyoraviy", "dunyoviy" muammolarni, global taraqqiyot istiqbollarini o'ziga qamrab oladi. Globallashuv atamasi birinchi bor 1960-yil Giddins tomonidan foydalanilgan. Bu atama XX asrning 90-yillarigicha deyarli foydalanilmagan. 1985-yilga kelib amerikalik sotsiolog R. Robertson «globallashuv» atamasiga tushuncha bergan. Globalizatsiya atamasi birinchi bo'lib iqtisodchi olimlar tomonidan 1981-yildan beri qo'llanilib kelingan. Ammo bu so'zning to'liq ma'nosi, konsepsiyasi 1990-yilning yarmida amerikalik olim Charlz Taz Rassel tomonidan to'liq ochib berilgan. Globallashuv atamasi dastlab amerikalik olim T. Levitt tomonidan 1983-yili «Garvard biznes rev'yu» jurnalida chop qilgan maqolasida qo'llangan. T. Levitt yirik transmilliy korporatsiyalar ishlab chiqaradigan turli-tuman mahsulot bozorlarining birlashuv jarayonlarini — globallashuv deb atagan.

Globallashuv bugungi kunda jamiyat hayotining barcha sohalariga, jumladan, yoshlar ongiga ham bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Axborot oqimining keskin oshishi, internet va ijtimoiy tarmoqlarning hayotimizda keng o'rin egallashi yoshlarning ijtimoiylashuv jarayoniga yangi omillarni kiritmoqda. Shu jarayonda yosh avlodning o'zini jamiyat a'zosi sifatida anglash jarayoni turlicha muammolarni keltirib chiqarmoqda. Globallashuv sharoitida yoshlar orasida ruhiy bosim, begonalashuv, o'zligini anglashda qiyinchiliklar kuzatilmoqda. Internet va virtual dunyo bilan ortiqcha shug'ullanish, real ijtimoiy hayotdan uzilish, yolg'izlik hissining kuchayishi kabi muammolar yosh avlodning psixologik barqarorligiga putur yetkazishi mumkin.

Ayni davrda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni jadallashtirish, ta'lim-tarbiya sohasini isloh etish, yoshlarimizni zamonaviy bilimlarni puxta egallagan yuksak aql-zakovat sohibi etib voyaga yetkazish davlatimizning ustuvor vazifalaridan biridir. Biroq xalqimizning o'ziga xos va mos milliy qadriyatlarga asoslangan tarbiya borasidagi azaliy an'analariga, ayniqsa, yoshlar tarbiyasiga «ommaviy madaniyat», mentalitetimizga yot g'oya va qarashlar soya solayotgani ham hech birimizga sir emas.

Ushbu jarayonda tarbiya masalasiga o'z vaqtida jiddiy e'tibor qaratish, bu borada ma'rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniyning «Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir» degan purma'no so'zlarini aslo unutmasligimiz lozim.

Tan olish kerakki, bugungi globallashuv jarayoni mentalitetimizga yot g'oyalar, internet va ijtimoiy tarmoqlardagi rang-barang ko'ngilochar shou-tomoshalar, o'yinlar, bir so'z bilan aytganda, turli «mahsulot»lar yurtimizga ommaviy tarzda kirib kelayotgani bor gap. Bunda yana bir ochiq va achchiq haqiqat shuki, hozirda aksariyat yoshlarimizning bo'sh vaqtini telefonda o'yin o'ynashga, film tomosha qilishga sarflamoqda. Yoshlarimizning uyali telefonga asir bo'lib borayotgani, internet va ijtimoiy tarmoqlardan, ulardagi ma'lumotlardan oqilona foydalanishlari borasida jiddiy o'ylab ko'rishimiz kerak bo'lgan jihatlar talaygina. Bu, eng avvalo, ularning salomatligiga, ma'naviyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, oxirgi vaqtlarda internet tarmoqlarida aldov va g'arazli maqsadlar yo'lida tarqatilayotgan turli axborot va ma'lumotlar domiga yoshlar osongina kirib ketmoqda.

Yoshlarimiz ma'naviyatini yuksaltirish, ularda yurish-turish odobi, muloqot va kiyinish madaniyatida me'yorni saqlay bilish ko'nikmasini hosil qilish uchun milliylik bilan zamonaviylik uyg'unligini ta'minlashimiz shart. Bu borada ijobiy natijaga

erishish uchun nafaqat pedagoglar, huquq-tartibot idoralari, yoshlar bilan ishlovchi tashkilotlar, balki keng jamoatchilik hamkorlikda ish olib borishi, xususan, tushuntirish va targ'ibot ishlarini kuchaytirish lozim. Ayniqsa, mahallalarda, har bir oilada ijtimoiy-ma'naviy muhitni yaxshilash, ota-onaning farzand tarbiyasiga, ularning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etishga bo'lgan e'tibori va mas'uliyatini oshirish, o'sib kelayotgan avlod ongu shuurida hech qanday g'oyaviy bo'shliqqa joy qoldirmaslikka alohida e'tibor qaratish kerak. Ayni globallashuv davrida yoshlarning ma'naviyati ularning oldiga qo'ygan va qo'yayotgan maqsadlari sari puxta yo'naltirilganiga bog'liq. Bunda idrok ko'nikmalarini hosil qilish, inson tug'ilganidan to shaxs sifatida shakllanganicha davom etishini inobatga olsak, mafkuraviy immunitet nihoyatda muhim jihat.

Albatta globallashuv jarayonining salbiy oqibatlaridan ko'z yumib bo'lmaydi. Ayniqsa uning madaniy standartizatsiya, informatizatsiya va qadriyati universalizatsiya jarayonlari milliy identifikatsiya krizisini keltirib chiqaradi. Ammo bunday salbiy holatlarni oldini olishning samarali yo'li bu- ushbu jarayonning faqatgina ta'sir obyekti emas, balki subyekti ham bo'lishdir. Bugungi kunda ayrim davlatlarni hisobga olmaganda dunyoning deyarli barcha mamlakatlari globallashuvning obyekti hisoblanadi. Masalan, Yaponiya ushbu jarayonning ham obyekti, ham subyekti. U globallashuvning obyekti sifatida G'arb qadriyatlarini o'zlashtirib, subyekt sifatida ularni adaptatsiyalashgan ko'rinishda Osiyoning boshqa mamlakatlariga taqdim etmoqda. Globallashuv davr taqazosi, rivojlanishning ayni damdagi tabiiy qonuniyati. Undan voz kechish yoki boshqacha yo'ldan rivojlanish mumkin emas.

Bugungi kunda globallashuv atamasi shunchalik mashhur bo'lib ketganki, uni XXI asr mahsuli desak mubolag'a bo'lmaydi. Shu o'rinda, izohlash uchun xilma-xil yondashuvlar, nazariyalar, paradigmalar ishlab chiqilgan bo'lib, ularning hammasini sharhlab quyidagi xulosaga kelish mumkin: globallashuv halqlar, mamlakatlar transformatsiyasi, insoniyatning bir butunlikka integratsiyasini keltirib chiqaradi. Shu ma'noda, muayyan jamiyat o'zidan yetuk deb hisoblagan boshqa jamiyatning mafkura, qarashlar, ilmiy-texnikaviy, madaniy yutuqlarni o'zlashtirishi globallashuv ta'siri ostida bo'ladi. Shu borada, kimdir buni jahonning yangi tarkibi shakllanishida xalqlarning yaqinlashuviga, iqtisodiy farovonlikka ijobiy ta'sir etadi, deb (K.Omae, P.Draker, T.Piters, S.Reysmit, S.Xantington va b.) hisoblasa, boshqalar (Z.Bauman, N.V.Zagladin, F.Fukuyamo, G.P.Martin, X.SHuman, M.G.Delyagin, V.I.Dobren'kov va b.) globallashuv milliylikning yo'qolishi, bir mamlakatning boshqa yirik ilmiy salohiyatga ega bo'lgan davlatlarga qaramligini oshiradi deb qaraydilar. Shu asnoda nafaqat oddiy o'quvchi, balki o'z mustaqil mushohada-mulohazasiga ega bo'lgan odamlarda ham globallashuv jarayoni ta'sirida jahonning yangi tarkibi yoki bo'lmasa millatlarning totuvligini ta'minlovchi madaniyati, ma'naviyati qanday bo'lishi to'g'risida gumonshubhalar, ikkilanishlar paydo bo'lishi tabiiy.

Bundan tashqari, globallashuv masalasiga oid zamonaviy bahslar ushbu muammoni yanada chigallashtirib yubormoqda hamda yangi muqobil g'oya, nazariyalarning paydo bo'lishiga turtki bermoqda. Jumladan, "Frantsuz olimi Jak Le Dyumgi quyidagi yondashuvlarni ishlab chiqadi: Liberal yondashuv. Globallashuv

faqatgina obyektiv jarayon emas, foydali fenomen sifatida iqtisodiy, ijtimoiy samaradorlikka olib keladi.

Bolalik davrida ijtimoiylashuv muammolari:

Bolalik davrida shaxsning asosiy ijtimoiy tajribasi oilada, maktabgacha ta'lim muassasalarida shakllanadi. Ammo globallashuv natijasida bola ongiga chet el multfilmlari, reklama mahsulotlari, smartfon va internet kontentlari kuchli ta'sir o'tkazmoqda. Natijada, milliy ertaklar, xalq og'zaki ijodi va o'zbekona qadriyatlar ikkinchi planga tushib qolmoqda. Bu jarayonda bolalikdagi ijtimoiylashuvda asosiy muammo – milliy tarbiya va qadriyatlarning zaiflashib borishi, bolalarning virtual hayotga haddan ortiq berilib ketishi va psixologik rivojlanishida sun'iylik yuzaga kelishidir. Bronfenbrennning ekologik tizim nazariyasiga ko'ra, bola rivojiga ta'sir etuvchi mikromuhit (oilalar, bog'cha), mezomuhit (atrofdagi muhit, mahalla), ekzomuhit va makromuhit faktorlarida globallashuvning kuchli izlari ko'rinmoqda.

O'smirlik davrida ijtimoiylashuv muammolari:

O'smirlik – shaxsiy identifikatsiya shakllanadigan, o'zini anglash kuchayadigan davrdir. Globallashuv sharoitida o'smirlar ko'proq ijtimoiy tarmoqlar orqali o'zini ifoda etishga intiladilar. Bu davrda tengdoshlar guruhi ta'siri kuchli bo'lib, yoshlar ko'pincha milliy qadriyatlardan yiroqlashib, global madaniyatning turli ko'rinishlarini qabul qiladilar. Eriksonning psixososial rivojlanish nazariyasiga ko'ra, o'smirlik davrida shaxs identifikatsiyasi va rol chalkashligi muammolari yuzaga keladi. Virtual hayotga haddan ortiq bog'lanish, yolg'izlik hissi, real hayotdan uzilish, internet orqali zararli g'oyalar ta'siriga tushish – asosiy psixologik muammolardir. Globallashuv sharoitida yoshlarning ijtimoiylashuvi psixologik jihatdan murakkab jarayondir. Bu jarayonda quyidagi muammolar ko'zga tashlanadi:

- Begonalashuv va yolg'izlik hissi;
- Stress va ijtimoiy bosim;
- Milliy qadriyatlar bilan global qadriyatlar o'rtasida ikkilanish;
- O'zini anglashdagi qiyinchiliklar;
- Mafkuraviy manipulyatsiyalarga beriluvchanlik.

Bunday muammolarni yengishda psixologik maslahatlar, milliy-ma'naviy tarbiya, oilaning qo'llab-quvvatlashi muhim ahamiyatga ega. Globallashuv jarayonida yoshlarning ijtimoiylashuvi murakkab va ko'p qirrali jarayondir. U ijobiy imkoniyatlar bilan birga ma'lum xavf-xatarlarni ham o'zida mujassamlashtiradi. Shu bois psixologlar, pedagoglar va ota-onalar yoshlarning ijtimoiy-psixologik rivojlanish jarayonini chuqur tushunib, ularga to'g'ri yo'naltirish berishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. G'apparov E. Globallashuv asoslari. – Namangan: NamDU nashriyoti, 2023. – B. 8–20.
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
3. Ziyov A. Globallashuv va madaniyatlar muloqoti. – Toshkent: O'zbekiston, 2019.
4. Abdullayeva N. Psixologiyada ijtimoiylashuv muammolari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.